

“TARJIMA JARAYONIDA LAKUNALAR: LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK KONTEKSTLARNI MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI (“DEVONU LUG'AT-IT TURK” ASARI MATERIALLARI MISOLIDA)”

Parpibayeva Maftuna Zafarjon qizi

Namangan tumani 3-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til, uning madaniy-tarixiy bosqichlari, tarixiy taraqqiyoti jarayonlari aks etgan tarixiy-qomusiy asarlar, jumladan Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'at-it turk” asari misolida tahlil etiladi. Ma'lum bir tilning tarixiy kategoriya ekanligi, shu tufayli til va u amal qilgan davr bir-biri bilan sinxronik, panaxronik va statik tizim sifatidagi bog'liqligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, “Devonu lug'at-it turk”, til, til va davr, madaniy-tarixiy areallari, tillar geografiyasi, millat, megasotsioma, moddiy va nomoddiy madaniyat.

Ma'lumki, ma'lum bir tilning madaniy-tarixiy areallari deb xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida unga xos bo'lgan madaniyatining tarqalish geografiyasi tushuniladi. Madaniy-tarixiy areal tarixiy kategoriya bo'lib, davr o'tgan sayin o'zchegaralarini va ma'no-mazmunini o'zgartirib boradi. Tilning madaniy-tarixiy areallari nafaqat til va ma'naviy madaniyatning tarqalishhududlarini, balki moddiy va nomoddiy madaniyat unsurlari (millat, xalq)ning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri yoyilgan mintaqalarni ham qamrab oladi. Binobarin, hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari, Afg'oniston, Sharqiy Turkiston va qisman Eron hududlari o'zbek tilining tarixiy-madaniy areallari bo'lib, tarixiy jihatdan o'zbek ma'naviy va moddiy madaniyatining obidaları ana shu hududlarda o'zbeklar va ba'zan turli til va madaniyatga mansub bo'lmish shaxslar tarafidan yaratilgan edi. Bu hol o'zbek tili tarixiga oid qomusiy va filologik lug'atlar hamda ularda izohlangan leksema (so'z) va frazeologik birliklarning ma'no-mazmunida ma'lum ma'no farqliliklarining vujudga kelishiga yo'l ochadi. Qolaversa, tilda va uning sathlarida yuz beradigan neologizatsiya, arxaizatsiya, so'z

o'zlashtirish, til birliklarining aktualizatsiyasi va deaktualizatsiyasi, leksikadagi periferial so'zlarning faollashishi kabi tabiiy jarayonlar "kechagi" so'zning ma'nolarini "bugungi" til jamoasi tomonidan boshqacha talqin va qabul qilinishiga yo'l ochadi. Aslida vaqt ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa bo'lib, u tabiatda, jamiyatda, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) ongda yuz beradigan o'zgarishlarning zamon kontekstini tashkil etadi.

O'zbek tili tarixida "Devonu lug'atit turk" yozilganidan beri o'tgan 950 yilga yaqin vaqt mobaynida xalqning mentalitetida, ijtimoiy ongda, shu bilan birga, tilimizning lisoniy belgilar tizimida, tushuncha apparatida, leksik qatlamlarida, uning boshqa davrlarida xilma-xil o'zgarishlar yuzaga keldi. Tabiiyki, bu o'zgarishlar tilning tamalida turgan leksik, semantik, sintaktik xususiyatlarni tubdan o'zgartirmadi, balki jamiyat hayotida yuz bergan o'zgarishlarni asosi o'laroq, azaliy belgi va tushunchalarga yangi ma'no yuklandi, ularning semantikasiga o'zgartirishlar kiritildi, til birligining leksik-semantik "yuklamasi" qayta baholandi va hakoza.

Zotan, til revolyutsion o'zgarishlardan "o'zini tiyadi", tadrijiy rivojlanish til taraqqiyotining asosiy yuz berish shaklidir. Zero, prof. N. Mahmudov haqli qayd etganidek, "olamning lisoniy manzarasiga tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami bo'lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir. Ayni shu odatiylik va majburiylik olam lisoniy manzarasining bardavomligini, tarixiy davrlararo til jamoasida (qavmda, xalqda) tirikligi va vorisiyligini, avloddan avlodga o'tib kelaverishini ta'minlaydi. Mashhur amerikalik sotsiolingvist Uilyam Labov to'g'ri ta'kidlaganidek, "lisoniy o'zgarishlar ijtimoiy kontekstda yuz beradi, shu sababli tildagi struktur o'zgarishlarni dastlab til tizimi ichida olib qarash, so'ngra tashqi til faktorlariga murojaat qilish mumkin emas". Shu sababli M.Koshg'ariy yashagan davr bilan davrimiz orasida yuz bergan ijtimoiy va lisoniy o'zgarishlarni bir-biridan ayirmagan holda ko'rib chiqish o'rinlidir.

Turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili tarixidagi eng qadimgi lug'atlar XI

asrdan XIII asrga qadar yaratilgan bo'lib, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridan boshlanadi. Bu davrga yana Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddamatu-ladab», mualliflari noma'lum asarlardan «Tarjumon turki va ajami va mo'g'uli», «Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya» kabi lug'atlarni kiritishimiz mumkin. XV asr va XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi lug'atchiligini asosan Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar tashkil etadi: Tole' Imoniy Hiraviyning «Badoe' ul-lug'at» (1405), «Abushqa» (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o'zbekcha-forscha «Sanglox» (1748), Ya'qub Chingiyning «Kelurnoma» va Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy», Muhammad Rizo Xoksoning «Muntaxabu-l-lug'ot» va «Zubd ul-lug'ot», Ishoqxon Ibratning «Lug'ati sita al-sina» kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu lug'atlar o'z davrining lug'atshunoslik an'analari yaratilgan bo'lsa-da, unda ayni tilning (o'zbek) turli davrlardagi holati va undagi so'zlarning ma'nomazmunini hisobga olib tuzilgan yoki muayyan badiiy matnda qo'llanilgan shakllarini kuzatish mumkin. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'azi Bahodirxon kabi o'zbek tilini o'z asarlarida san'atkorona qo'llagan va xoh turkiy, xoh arabiy-forsiy so'zlarni bo'lsin, ma'no va ifoda potensialini yuksak mahorat bilan ifodalashning uddasidan chiqqan mutafakkir ijodkorlarning asarlari va ularga bizning davrimizda tuzilgan lug'atlarda ham tilimiz tarixidagi olamning lisoniy manzarasining ulkan parametrlari yashirinib yotibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni// (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son) "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 168

2. Qosimova K, Matchonov S1. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakultet talabalari uchun darslik: Toshkent: Bayoz, 2022. 304bet.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: darslik 3-sinf uchun/ K.Mavlonova [va boshqalar].- Toshkent: Respublika talim markazi, 2022.- 144b.
4. Ведерникова Н.М. Русская народная сказка.-М.: Наука, 1975.